

**MAKTAB TABIIY GEOGRAFIYASI DARSLARIDA BADIY IJOD  
USULIDAN FOYDALANISHNING QOIDALARI, MAZMUN-  
MOHIYATI VA IMKONIYATLARI**

A. T. Sobirxonov

Uzbekistan, Namangan Region

Namangan davlat Universiteti

**Annotatsiya**

Tabiiy geografiya ta’limi jarayonlarida foydalaniladigan yangicha metod badiiy ijod usulidan foydalanish bo‘yicha qoidalar, uning mazmun-mohiyati tushuntirilgan.

**Kalit so’zlar:** Badiiy ijod, epigraf, xulosa chiqarish, metod, qoida, badiiy adabiyot, kitobxonlik, maktab tabiiy geografiyasi, qo’shimcha materiallar, badiiy saviya

**Правила, сущность и возможности использования метода  
художественного творчества на школьных уроках естествознания**

**А. Т.Собирхонов**

Узбекистан, Наманганская область

Наманганская государственный университет

**Аннотация:**

Объясняются правила использования нового метода художественного творчества, применяемого в естественно-географическом учебном процессе, его содержание и сущность.

**Ключевые слова:** Художественное творчество, эпиграф, умозаключение, метод, правило, художественная литература, чтение, школьное природоведение, дополнительные материалы, художественный уровень.

**THE RULES, ESSENCE AND POSSIBILITIES OF USING THE  
METHOD OF ARTISTIC CREATION IN SCHOOL NATURAL  
GEOGRAPHY CLASSES**

A. T. Sobirxonov

Uzbekistan, Namangan region

Namangan State University

**Annotation**

The rules for using a new method of artistic creation, used in the natural-geographical educational process, its content and essence are explained.

**Keywords:** Artistic creativity, epigraph, conclusion, method, rule, fiction, reading, school natural history, additional materials, artistic level.

Bugungi zamon talabi hamda ta'limtarbiya berih usullaridan kelib chiqib aytib o'tish joizki, geografiya darslarini o'qitishdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning geografik bilim darajalarini boyitish va geografiya fanini fanlar tizimidagi o'rmini yanada oshirish va mustahkamlashdan iborat. Buning uchun pedagog geograflardan ulkan bilim, tajriba, malaka, salohiyat va o'z kasbining haqiqiy ustasi bo'lishligi talab etiladi.

Yuqorida mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, har tomonlama maqsad va vazifaga ilmiy nuqtayi-nazardan kelib chiqgn holda tadqiqot ishida taklif etilayotgan ushbu usul (metod) ta'lim jarayonlarining faqat yuksalishiga hizmat qiladi. Shuningdek, Maktab tabiiy geografiyasi darslarida badiiy ijod namunalaridan foydalanishning ham e'tiborga molik bo'lgan jihatlari va qoidalari mavjud [1].

Jumladan; maktab tabiiy geografiyasi darslarida badiiy ijod usulidan foydalanishda, geografiya darslari davomida mavzularning epigraf, xulosa chiqarish yoki mavzuga mos bo'lgan ijod namunalaridan foydalanish mumkin. Bunda o'quvchilar geografik mavzularga doir tushunchalarni oson, tez, tushunarli tarzda o'zlashtiradilar.

**Epigraf** (yunoncha - ustki yozuv) - adabiy asar yoki uning biror qismi (bobi)ning tepasiga yozib qo'yilgan va shu asar yoki qism (bob) mazmunini ifodalaydigan, asosiy yo'nalishini belgilab beradigan teran ma'noli ibora, maqol, matal, hikmatli so'z, qo'shiq, she'r yoki o'zga bir manbadan olingan parcha.

. Epigraf iqtibos yoki ko'chirmaning barcha xususiyatlariga ega bo'lib, asosiy matnga o'ziga xos kirish vazifasini o'taydi. Ularsiz ba'zan badiiy asarning mohiyatini anglash mumkin bo'lmay qoladi. Parodiyalarda ham epigraf qo'llaniladi[2].

Masalan; tabiiy geografiya darslarida mavzudan oldin badiiy ijod usulidan epigraf qismida foydalanilsa, o'quvchilar asta sekinlik bilan mavzu haqida dastlabki ma'lumotlarga hamda tushunchalarga ega bo'ladilar.

**Xulosa chiqarish** - tafakkurning asosiy mantikiy shakllaridan biri. Unda mantiqning ma'lum qoidalari yordamida bir yoki bir necha hukm (asos)dan yangi hukm chiqariladi. Mavzu yakunida ushbu usuldan xulosa chiqarish sifatida ham

foydanish mumkin. Natijada o‘quvchilar mavzuga doir bo‘lgan tushunchalarni umumlashtiradilar hamda o‘zlari uchun kerakli xulosaga ega bo‘ladilar.

Darslar davomida tabiiy geografiya mavzusiga doir materiallarni tanlashda quyidagilarga amal qilish zarur. Biz ushbu jarayonlardagi eng muhim qoidalarni ishlab chiqdik (1-jadvalga qarang). Bu ham har tomonlama darslar sifatini oshirishga hizmat qiladi.

**1-jadval. Maktab tabiiy geografiyasi darslarida badiiy ijod usulidan foydalanishning eng muhim qoidalari**

<b>Nº</b>	<b>Eng muhim qoidalar</b>	<b>Qoidalarga izoh va sharh</b>
1.	<b>1-qoida:</b> tanlangan tabiiy geografiya darslaridagi badiiy ijodga tegishli ma'lumotlar aynan shu mavzuga tegishli bo'lishi;	aynan shu mavzuga tegishli badiiy ijoddan foydalanilmasa chalkash holatlar yuzaga keladi.
2.	<b>2-qoida:</b> badiiy ijoddagi ma'lumotlar qiziqarli bo'lishi;	qiziqarli usulgina darsdagi faollikni yanada oshiradi.
3.	<b>3-qoida:</b> o‘quvchilarning bilim saviyasi va yosh psixofiziologik holatiga mos kelishi;	tanlangan ijod o‘quvchilarni tushunishlariga oson bo‘lsa, yosh psixofiziologik holatiga mos bo‘lsa maqsadga tezroq erishtiradi.
4.	<b>4-qoida:</b> ta'lim-tarbiyaning talablariga javob berishi, dasturiy reja talablariga mos kelishi;	keltirilgan ijoddagi axloqiy, tarbiyaviy talablar o‘quvchilarni ma’naviyatini oshirishga hizmat qiladi
5.	<b>5-qoida:</b> tanlangan qo'shimcha materiallar o‘zining badiiy saviyasi yetarli bo'lishi;	badiiy ijoddagi ma'lumotlarning qofiyasi, mazmuni va o‘quvchilarga tushunarli bo'lishi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.
6.	<b>6-qoida:</b> voqeliyligi hamda mazmuni bilan o‘quvchilarni o‘ziga jalb qilishi;	o‘quvchilarni o‘ziga jalb qilgan badiiy ijod darsdan foydalanish uchun asos bo‘ladi.
7.	<b>7-qoida:</b> tanlangan badiiy ijod usuli geografiya darslari samaradorligini oshishiga hizmat qilishi;	Darslardagi samaradorlik belgilangan vazifalarni bajarilganligini isboti hisoblanadi.
8.	<b>8-qoida:</b> badiiy ijoddagi tanlangan parcha yoki matn ilmiy jihatdan to‘g‘ri bo'lishi;	keltirilgan misoldagi geografik ma'lumotlar mavzuga mos, hayotiy va to‘g‘ri bo'lishi muhimdir.
9.	<b>9-qoida:</b> qisqa mazmundagi badiiy ijod usulida keng qamrovli mavzuga tegishli ma'lumotlarni jamlagan bo'lishi;	badiiy ijod usulidagi materiallar mazmunidan ham o‘quvchilar ko‘p narsalarni tahlil qilib olishlari kerak.
10.	<b>10-qoida:</b> tanlangan matn, parcha yoki she'r ilmiy jihatdan to‘g‘ri bo'lishi;	ilmiy asoslangan ma'lumotlardangina foydalanish kerak.
11.	<b>11-qoida:</b> o‘qituvchi o‘tiladigan dars mazmunini ochib berishga hizmat qiladigan va ta'lim-tarbiya prinsipiga mos keladigan parchalarni tanlay ola bilishi;	darslar jarayonida faqat o‘quvchi emas, balki pedagog ham materialni mavzuga mos tarzda tanlashi, uni tushunarli tilda o‘quvchilarga yetkazishi kerak. Bu har ikki tomon uchun foydalidir.
12.	<b>12-qoida:</b> badiiy parchalardagi jumla, ibora va so‘zlar qiyin bo‘imasligi, o‘quvchilar uchun tushunarli bo'lishi juda muhimdir.	o‘quvchilar badiiy ijoddan keltirilgan jumlanı yodlashga, sharhlashga va tahlil qilishda muammolarga duchor bo‘lmaydilar.

Maktab tabiiy geografiyasi darslarida badiiy ijod usulidan foydalanishda yuqorida keltirilgan qoidalarga amal qilinishi juda muhimdir. Boisi, ushbu qoidalarsiz geografiya darslari davomida ko‘zlangan maqsadga va natijaga erishish qiyin. Bundan tashqari ushbu usuldan badiiy kechalarda, geografiya fani oyligi doiraidagi tanlovlardan, musobaqalarda keng miqyosda foydalanish ham o‘quvchilarining geografik bilimlarini oshirishga hizmat qiladi. Umuman olganda, maktab tabiiy geografiya darslarida badiiy ijod usulidan foydalanish geografiya darslarini, fan oyligini har tomonlama qiziqarli, mazmunli va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Jumladan: ayrim tanlangan tabiiy geografiya darslaridagi badiiy ijod usullarida ilmiy jihatdan ko‘pgina xatoliklar bo‘lishi mumkin. Masalan, bir muallifning asarida Zarafshon daryosining suvi tiniq va zilol deb ta’riflangan. Vaholanki, Zarafshon daryosi o‘rtacha yillik oqimining 55 % iyul-sentabr oylariga to‘g‘ri kelib, bu davrda u juda loyqa bo‘lib oqadi. Daryoning o‘rtacha loyqaligi Dupulida 0,88 kg/m kub ni tashkil etadi. Bundan ko‘rinib turibdiki daryo suvi tiniq va zilol emas, aksincha ko‘pincha loyqa bo‘lib oqadi. Bu kabi ma’lumotlar o‘quvchilarni noto‘g‘ri ma’lumotlar olishiga sababchi bo‘ladi. Ilmiylik o‘z ahamiyatini yo‘qotadi. Shu boisdan o‘qituvchi ilmiy xatolarga yo‘l qo‘ymasligi, tanlanishi kerak bo‘lgan badiiy ijod materiallarida hushyor bo‘lishi lozim.

Ushbu holat bo‘yicha boshqa misollarni ham keltirishimiz mumkin, masalan, dunyodagi eng balang tog‘ tizmasi - And tog‘i deyish ham hato (Eng baland tog‘ tizmasi Himolay), eng katta okent Atlantika okeani deyish ham bu mantiqdan emas. Eng katta oekan Tinch okeani ekanligini ko‘pchilik biladi va bu ilmiy asoslarga ega ma’lumotdir. Shu boisdan berilayotgan ma’lumotlarni har bir pedagog doimo to‘g‘riligiga e’tibor qaratishi lozim.

Bundan tashqari, maktab o‘quvchilarining psixologik holati, qabul qilish darajasi, ularning nutqiy savodxonligi va boshqa omillarni inobatga olish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi ko‘rsatmalarning amalga oshirilishi har tomonlama yosh geograflarning (o‘quvchilarining) bilim saviyasini oshishiga, eng muhimi geografiya fanini yanada rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

Keltirilgan ma’lumotlar va dalillardan shuni xulosa qilish mumkin, bunda, adabiyot va tabiiy geografiya fanining mavzulararo integratsiyasi natijasida bir qator muammolarni hal qilishga bo‘lgan samarali yechimning mavjudligi, geografik mavzularni real hayotga bog‘lash va o‘quvchilarda yetarli tasavvurlar uyg‘otishni ta’minlashi, nazariy ma’lumotlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash va o‘quvchilarini faol mustaqil bilish jarayoniga jalb etish imkonini beradi. Sinfdagidagi namunali o‘zlashtiradigan faol va o‘zlashtirishga qiynalayotgan passiy

o‘quvchilar o‘rtasidagi muvozanatni tiklab, har ikkisini ham aktiv holatga keltiradi. Eng muhim bo‘lgan jihat o‘quvchilarni har tomonlama geografik bilimlarini oshishiga, kitobxonlikka keng miqyosda jalb qilishga asos bo‘ladi. Bu jarayonda tabiiy geografiya va adabiyot fanining integratsiyasi muhum ahamiyatga ega ekanligi va buni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Maktab tabiiy geografiyasi darslarida badiiy ijod usulidan foydalanishda, tushuntirilgan va amal qilinishi muhim bo‘lgan eng muhim jihatlar, tanlangan usul mvzularning epigraf, xulosa chiqarish yoki mavzuga mos bo‘lgan ijod namunalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Sobirxonov. A.T. Tabiiy geografiya kursida mavzularni yoritishda badiiy metoddan foydalanish (o‘quv-uslubiy qo‘llanma) - T. 2015-y. 38-39 b.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi E va X harfi, Toshkent 2000-2005-y.y. 157-b
3. [https://www.oriens.uz/en/journal/article/maktab-tabiiy-geografiyasi  
darslarida-badiiy-ijodiyotdan-foydalanishning-oziga-xos-jihatlari ва  
xususiyatlari](https://www.oriens.uz/en/journal/article/maktab-tabiiy-geografiyasi-darslarida-badiiy-ijodiyotdan-foydalanishning-oziga-xos-jihatlari ва xususiyatlari)